



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 16 - may

213-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

Viloyat hokimining 2022-yil 11-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
“Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar
samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 25-
apreldagi PQ-215-son qarorining ijrosini ta‘minlash haqida”gi 294-8-0-Q/22-sonli qarori
to‘g‘risida

2022-yil 18-mart kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan “Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun” mavzusidagi ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022-yil 11-maydagi 294-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qaror bilan:

aholiga ko‘rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining sifatini yaxshilash, tibbiyot xodimlarini qo‘llab-quvvatlash va faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalaridan uzoq masofada joylashgan mahallalarda 2022-yil davomida mahalla tibbiyot punktlarini tashkil etish jadvali tasdiqlanganligi;

2022-yil 1-sentabrdan boshlab shifokorlarning yakka tartibda oilaviy shifokorlik faoliyatini yuritishga ruxsat berilganligi;

tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmat turlaridan tashqari xizmat turlarini pullik asosda tashkil etishga ruxsat berilganligi;

2022-yil 1-avgustdan boshlab oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarning ish samaradorligini baholash bo‘yicha yangi reyting tizimi joriy qilinganligi;

2022-yil 1-sentabrdan boshlab tibbiyot tizimi rahbarlarining xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hamda mahalla fuqarolar yig'inlarida hisobot berish tartibi joriy qilinganligi;

O'z mahallasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilgan, shaxsiy namuna ko'rsatgan tibbiyot xodimlari va jamoatchilik vakillari uchun "Xalq salomatligi posboni" ko'krak nishonini ta'sis etish belgilanganligi;

2022-yil 1-iyundan boshlab qon bilan bevosita ishlayotgan davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini gepatit "B" kasalligiga qarshi bepul emlash amaliyoti joriy etilishi belgilanganligi va yuqoridagilar inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining sifatini yaxshilash, tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash va faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga;

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalaridan uzoq masofada joylashgan mahallalarda 2022-yil davomida mahalla tibbiyot punktlarini tashkil etish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinaev) tuman hokimligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-son Farmoni bilan tasdiqlangan oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarni tashkil etish jadvaliga muvofiq, yangi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyatini yo'lga qo'yish choralarini ko'rsin.

5. 2022-yil 1-iyuldan boshlab olis va chekka hududlarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar shifokorlari uchun "Qishloq shifokori" dasturi takomillashtirilsin.

Bunda, yangilangan "Qishloq shifokori" dasturi doirasida tuman hokimligi bir oy muddatda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalardagi shifokorlarga bo'lgan talabni mahallalar kesimida aniqlash, shifokorlarni jalb etish va ehtiyojga ko'ra kelgusida ularga uy-joy ajratish choralarini ko'rsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari O.Umarov zimmasiga yuklansin.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV

Angor tuman hokimining
2022 yil 16 maydagi
213-8-109-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining sifatini yaxshilash, tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash va faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar

DASTURI:

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
I. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish					
1.	Zamonaviy talab va innovatsion yondashuvlarni inobatga olgan holda, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari binolarini qurish, kommunikatsiyalar bilan ta'minlash, xonalarning joylashuvi, jihozlanishi bo'yicha maxsus talablar va namunaviy loyihalar ishlab chiqish. Keyinchalik tibbiyot muassasalari uchun binolar qurish, rekonstruksiya qilish va foydalanishga topshirishda mazkur talablarga rioya qilinishini ta'minlash.	Normativ hujjat	2022-yil iyul	-	Qurilish bo'limi (<i>B.Usmonov</i>), Tibbiyot birlashmasi (<i>Sh.Odinaev</i>), tuman hokimligi
II. Tibbiy yordam ko'lamini kengaytirish va aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish					
2.	Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalaridan uzoq masofada joylashgan mahallalarda tibbiyot punktini tashkil etish uchun maxsus konteynerlarni o'rnatish, infratuzilma yaratish (elektr, suv, oqova suv tizimi, atrofni obodonlashtirish va boshqalar), zarur jihozlar bilan ta'minlash orqali ularning faoliyatini yo'lga qo'yish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil davomida reja-grafik asosida	Mahalliy budjet mablag'lari	Tuman hokimligi, Tibbiyot birlashmasi (<i>Sh.Odinaev</i>),
3.	Yangi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyatini yo'lga qo'yish uchun tegishli binolarni ajratish, ta'mirlash ishlarini o'tkazish, tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar davomida reja-grafik asosida	Mahalliy budjet mablag'lari	Tuman hokimligi, Tibbiyot birlashmasi (<i>Sh.Odinaev</i>),

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbalari	Ijro uchun mas'ullar
4.	Olis va chekka hududlardagi davolash-profilaktika muassasalarida shifokorlarga bo'lgan ehtiyojni mahallalar kesimida aniqlash, bo'sh shifokor ish o'rinlari ro'yxatini shakllantirish va muntazam yangilab borish. Vakant o'rinlarga talabgorlar bilan shartnomalar tuzish va ish o'rni bilan ta'minlash, uy-joy ajratish va ustamalar belgilash.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-iyuldan boshlab	Mahalliy budjet mablag'lari	Tuman hokimligi, Tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinaev),
III. Kasalliklar profilaktikasi, tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish					
5.	Xavf guruhiga mansub aholini yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavf omillarini aniqlash bo'yicha skrining dasturlari bilan qamrab olish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil davomida reja-grafik asosida	-	Tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinaev), tuman hokimligi
6.	Tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida "To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi" xonalarining jihozlanish jadvalini va tibbiy xodimlar vazifalarini belgilash.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil iyul	-	Tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinaev), tuman hokimligi
	Ushbu xonalarda ommaviy targ'ibot va skrining tadbirlarini o'tkazish bilan birgalikda sog'lom turmush tarzi asoslari bo'yicha individual maslahat berish tizimini joriy etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil davomida reja-grafik asosida		
IV. Amalga oshirilgan ishlardan aholining xabardorligini oshirish va ommaviy axborot vositalarida yoritib borish					
7.	Tuman tibbiyot birlashmasi qoshida muntazam faoliyat yurituvchi call-markaz tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil may	-	Tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinaev)
	Ushbu markazda fuqarolar va tibbiyot xodimlaridan murojaatlarni qabul qilish, ularni hal etish bilan birgalikda, tizimli takliflardan sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda foydalanish yo'lga qo'yish.		2022-yil davomida		